

Ibragimov A'lamjon Amrilloevich,
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor,
Samarqand xalqaro texnologiya universiteti
prorektori

Davronova Go'zal Mardanovna,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Samarqand davlat pedagogika instituti dotsenti

BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARINI KASBIY- METODIK TAYYORLASHNING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI (MILLIY MUSIQIY MEROS VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR INTEGRATSIYASI ASOSIDA)

UO'K 378.0:781.2(5751)

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2026_ISSUE_6_1](https://doi.org/10.34920/so/vol_2026_issue_6_1)

**IBRAGIMOV A.A., DAVRONOVA G.M. BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARINI KASBIY-
METODIK TAYYORLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI (MILLIY MUSIQIY
MEROS VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR INTEGRATSIYASI ASOSIDA)**

Ushbu maqolada bo'lajak musiqa o'qituvchilarini kasbiy-metodik tayyorlash tizimining nazariy-metodologik asoslari tahlil qilinadi. Milliy musiqiy meros va raqamli texnologiyalar integratsiyasining didaktik salohiyati o'rganilib, mavzu bo'yicha amaliy tadqiqot natijalari jamlanadi. Tadqiqotda nazariy tahlil, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil va umumlashtirish usullari qo'llangan. Natijada kasbiy-metodik tayyorgarlikning tarkibiy komponentlari aniqlanib, tizimni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari belgilangan. Maqola musiqa pedagogikasi sohasi mutaxassislari, doktorantlar va magistrantlar uchun mo'ljallangan.

Tayanch so'z va tushunchalar: kasbiy-metodik tayyorgarlik, nazariy-metodologik asoslar, integrativ yondashuv, milliy musiqiy meros, raqamli texnologiyalar, pedagogik integratsiya, metodik kompetentlik, raqamli pedagogika, kompetensiyaviy yondashuv, musiqa pedagogikasi, kasbiy kompetensiya, ta'limni raqamlashtirish.

**ИБРАГИМОВ А.А., ДАВРОНОВА Г.М. ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ
ПРОФЕССИОНАЛЬНО-МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ
МУЗЫКИ (НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОГО МУЗЫКАЛЬНОГО
НАСЛЕДИЯ И ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ)**

В данной статье анализируются теоретико-методологические основы системы профессионально-методической подготовки будущих учителей музыки. Исследуется дидактический потенциал интеграции национального музыкального наследия и цифровых технологий, а также обобщаются результаты практических исследований по данной теме. В работе применены методы теоретического анализа, системного подхода, сравнительного анализа и обоб-

щения. В результате определены структурные компоненты профессионально-методической подготовки и обозначены основные направления совершенствования данной системы. Статья предназначена для специалистов в области музыкальной педагогики, докторантов и магистрантов.

Ключевые слова и понятия: профессионально-методическая подготовка, теоретико-методологические основы, интегративный подход, национальное музыкальное наследие, цифровые технологии, педагогическая интеграция, методическая компетентность, цифровая педагогика, компетентностный подход, музыкальная педагогика, профессиональная компетентность, цифровизация образования.

IBRAGIMOV A.A., DAVRONOVA G.M. THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF PROFESSIONAL AND METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE MUSIC TEACHERS (BASED ON THE INTEGRATION OF NATIONAL MUSICAL HERITAGE AND DIGITAL TECHNOLOGIES)

This article examines the theoretical and methodological foundations of the professional and methodological training system for future music teachers. It explores the didactic potential of integrating national musical heritage with digital technologies and summarizes the findings of practical research conducted in this field. The study employs theoretical analysis, a systematic approach, comparative analysis, and generalization methods. As a result, the structural components of professional and methodological training are identified, and the main directions for improving the system are determined. The article is intended for specialists in music education, doctoral researchers, and graduate students.

Keywords and concepts: professional and methodological training, theoretical and methodological foundations, integrative approach, national musical heritage, digital technologies, pedagogical integration, methodological competence, digital pedagogy, competency-based approach, music pedagogy, professional competence, digitalization of education.

Kirish.

Bugungi kunda oliy pedagogik ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarni zamonaviy talablar asosida tayyorlash, ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bo'lajak musiqa o'qituvchilarini kasbiy-metodik jihatdan shunday tayyorlash zarurki, ular bir tomondan milliy musiqiy merosni chuqur o'zlashtirgan, ikkinchi tomondan esa raqamli texnologiyalar va zamonaviy pedagogik vositalardan samarali foydalana oladigan malakali mutaxassis sifatida shakllansin.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash

to'g'risida"gi Farmonida¹ oliy ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvni keng joriy etish, ta'lim mazmunini zamonaviylashtirish hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Mazkur hujjat pedagog kadrlarni tayyorlashda nazariya va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish, ta'lim jarayonini raqamlashtirish hamda xalqaro tajribalarni joriy etish zarurligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni² ta'lim sohasida raqamli infratuzilmani rivojlantirish, elektron ta'lim resurslarini kengaytirish, sun'iy intellekt va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga integratsiya qilish bo'yicha

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida". – Toshkent, 2019.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida". – Toshkent, 2020

muhim vazifalarni belgilab berdi. Ushbu strategiya musiqa ta'limida ham raqamli platformalar, multimedia vositalari, virtual laboratoriyalar va interaktiv metodlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Bundan tashqari, Prezidentning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida¹ ta'lim sifatini oshirish, pedagoglarning kasbiy mahoratini takomillashtirish, milliy qadriyatlar va zamonaviy innovatsiyalar uyg'unligini ta'minlash ustuvor vazifalar qatoriga kiritilgan. Mazkur hujjatlar bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida milliy musiqiy meros va raqamli texnologiyalarni integratsiyalashning me'yoriy-huquqiy asosini tashkil etadi.

Musiqa ta'limi tizimining mazmunini takomillashtirishda milliy musiqiy meros alohida ahamiyatga ega. Maqom san'ati, xalq qo'shiqlari, folklor namunalari hamda an'anaviy cholg'u ijrochiligi nafaqat estetik tarbiya vositasi, balki yosh avlodning milliy o'zligini anglash, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini shakllantirish va madaniy merosga hurmat ruhida tarbiyalashning muhim omili hisoblanadi. UNESCOning 2003-yilda qabul qilingan "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiyasi" hamda ushbu yo'nalishdagi keyingi tavsiyalarida nomoddiy madaniy merosni ta'lim tizimiga integratsiya qilish uni asrash va kelajak avlodlarga yetkazishning eng samarali vositalaridan biri sifatida e'tirof etilgan.

Shu bilan birga, global raqamli transformatsiya sharoitida musiqa ta'limi mazmuni ham yangi pedagogik texnologiyalar bilan boyitilmoqda. Raqamli notatsiya dasturlari, virtual musiqa platformalari, sun'iy intellekt asosidagi o'quv tizimlari va multimedia resurslari bo'lajak musiqa o'qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirishda muhim didaktik vositaga aylanmoqda. Biroq amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarida milliy musiqiy meros va raqamli texnologiyalarni yagona integrativ metodik tizim asosida uyg'unlashtirish bo'yicha ilmiy-metodik yondashuvlar yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Mazkur holat tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi. Ushbu maqolaning maqsadi bo'lajak musiqa o'qituvchilarini kasbiy-metodik tayyorlashning nazariy-metodologik asoslarini yoritish, milliy musiqiy meros va raqamli texnologiyalar integratsiyasining pedagogik hamda didaktik imkoniyatlarini tahlil qilish, shuningdek, ushbu yo'nalishda mavjud ilmiy qarashlar va amaliy tajribalarni umumlashtirishdan iborat. Tadqiqot natijalari bo'lajak musiqa o'qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish hamda musiqa pedagogikasini zamonaviy talablar asosida takomillashtirishga xizmat qiladi.

Usullar.

Tadqiqot metodologik asosini tizimli yondashuv, madaniyatlar muloqoti tamoyili va kompetensiyaviy yondashuv tashkil etadi. Mazkur yondashuvlar bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlashni yaxlit pedagogik tizim sifatida, uning tarkibiy qismlarini o'zaro bog'liqlikda o'rganish imkonini beradi.

1-jadvalda izlanishda qo'llangan ilmiy-tadqiqot usullar keltirilgan.

Tadqiqot davomida quyidagi materiallar o'rganildi:

- O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida musiqa ta'limi yo'nalishi bo'yicha davlat ta'lim standartlari va o'quv rejalari;
- Mahalliy va xorijiy olimlarning musiqa ta'limi, pedagogika, psixologiya, musiqashunoslik va raqamli texnologiyalarga oid ilmiy ishlari;
- Mavzuga oid ilmiy maqolalar (150 dan ortiq manba);
- Xorijiy mamlakatlar (AQSh, Germaniya, Finlandiya, Xitoy, Qozog'iston) musiqa pedagogik kadrlar tayyorlash tajribasini aks ettiruvchi materiallar.

Natijalar.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini kasbiy-metodik tayyorlashning nazariy asoslarini tahlil qilish natijasida tayyorgarlikning quyidagi tarkibiy qismlari aniqlandi (2-jadval):

Milliy musiqiy merosni zamonaviy ta'lim jarayoniga integratsiya qilish masalasi so'nggi yillarda musiqa pedagogikasi va ta'lim nazariyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida tadqiq etilmoqda. Tadqiqotlar milliy musiqa namunalaridan foydalanish o'quvchilarning estetik

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". – Toshkent, 2022.

1- jadval. Izlanishda qo'llangan ilmiy-tadqiqot usullar

Usul nomi	Qo'llanish maqsadi
Nazariy tahlil	Mavzuga oid nazariy asoslar: pedagogik, psixologik va musiqashunoslik adabiyotlarini o'rganish
Tizimli tahlil	Kasbiy-metodik tayyorlash tizimining tarkibiy elementlarini ajratish
Qiyosiy tahlil	Turli mamlakatlar tajribasini, an'anaviy va innovatsion yondashuvlarni taqqoslash
Klassifikatsiya	Tayyorlash tarkibiy qismlarini, tamoyillar va metodlarni guruhlash
Empirik ma'lumotlarni tahlil qilish	Mavzuga oid ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar va hisobotlarni tahlil qilish
Statistik tahlil	Adabiyotlar tahlili asosida olingan ma'lumotlarni miqdoriy baholash

2-jadval. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini kasbiy-metodik tayyorlash tarkibiy qismlari

Tarkibiy qism	Tavsifi
Nazariy tayyorgarlik	Musiqa nazariyasi, tarixi, pedagogika, psixologiya, metodika fanlaridan chuqur bilimlar
Amaliy tayyorgarlik	Cholg'u ijrochiligi, vokal, xor dirijyorligi, pedagogik amaliyot ko'nikmalari
Metodik tayyorgarlik	Musiqa madaniyati fanini o'qitish metodikasi, didaktik vositalar va texnologiyalarni qo'llay olish
Raqamli texnologiyalar bilan ishlash tayyorgarligi	Musiqa dasturlari (Sibelius, Finale, Ableton Live), electron resurslar, masofaviy ta'lim vositalaridan foydalanish ko'nikmalari
Milliy musiqiy merosni o'zlashtirish	Maqom, xalq qo'shiqlari, an'anaviy cholg'ular va milliy musiqa tarixini bilish
Integrativ tayyorgarlik	Milliy meros va raqamli texnologiyalarni uyg'unlashtirib o'quv jarayonida qo'llay olish qobiliyati

didi, musiqiy tafakkuri, madaniy identifikatsiyasi va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatadi. Xususan, milliy musiqiy merosning ta'lim jarayoniga integratsiyasi o'quvchilarda madaniy o'zlikni anglash, estetik qadriyatlarini shakllantirish va sotsiomadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishning muhim omili sifatida e'tirof etilgan¹. Shuningdek, milliy musiqa asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni yoshlarda milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik tuyg'ulari, estetik madaniyat va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslangan².

Milliy musiqiy merosni zamonaviy ta'lim jarayoniga integratsiya qilish zarurati UNESCOning 2003-yildagi "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to'g'risidagi Konvensiyasi" hamda 2024-yilda qabul qilingan "Culture and Arts Education Framework" hujjatlarida o'z aksini topgan. Mazkur hujjatlarda madaniy merosni

formal va noformal ta'lim orqali avlodlarga yetkazish, yoshlarning madaniy identifikatsiyasini mustahkamlash, ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish va madaniy xilma-xillikni asrashning muhim omili sifatida e'tirof etiladi.

Musiqa pedagogikasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar milliy musiqa namunalariidan foydalanish o'quvchilarning estetik didini, ijodiy fikrlashini, madaniy savodxonligini hamda milliy o'zlikni anglashini rivojlantirishini ko'rsatadi. UNESCO ham nomoddiy madaniy merosni ta'limga integratsiya qilish ta'lim mazmunining dolzarbligi va o'quv natijalarini yaxshilashga xizmat qilishini e'tirof etadi³. Maqom san'ati elementlarini musiqa ta'limi jarayoniga joriy etish o'quvchilarning estetik didi, musiqiy tafakkuri va ma'naviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi⁴. Shuningdek, dutor, tanbur, nay kabi milliy cholg'ular vositasida maqom va xalq musiqa merosini o'rgatishning zamonaviy metodlari ishlab chiqilgan bo'lib, ular o'quvchilarning amaliy ijrochilik ko'nikmalari,

¹ Karimova D.A. Axiological (Value-Oriented) Paradigm of Music Education in the Era of Globalization // *European Review of Contemporary Arts and Humanities*. – 2026. – Vol. 2. – No. 5. – P. 28–31. (29–30-betlar) – milliy musiqiy merosning estetik tarbiya va madaniy identifikatsiyani rivojlantirishdagi pedagogik ahamiyati asoslangan.

² Qobilova E.B. Educating Students in a National Spirit Through Music: Scientific-Theoretical Foundations and Methodology // *Advances in Science and Humanities*. – 2026. – Vol. 2. – No. 3. – P. 49–51. (49–50-betlar) – milliy musiqa vositasida milliy o'zlik, estetik tafakkur va ma'naviy tarbiya masalalari tahlil qilingan.

³ UNESCO. About Living Heritage and Education. Intangible Cultural Heritage and Education Programme. Paris: UNESCO, 2024. – URL: <https://ich.unesco.org/en/about-01159> (murojaat qilingan sana: 18.06.2026).

⁴ San'atboev O'S. Xorazm maqomlari asosida maktab o'quvchilarida estetik didni rivojlantirishning metodik asoslari // *Science and Education*. – 2025. – Vol. 6. – № 11. – B. 358.

musiqiy tafakkuri hamda milliy madaniy identifikatsiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi¹.

Xorijiy mamlakatlar, xususan Xitoy, Qirg'iziston, Finlandiya va Germaniya tajribasi milliy musiqiy an'analarni zamonaviy ta'lim tizimiga integratsiya qilish o'quvchilarning madaniy identifikatsiyasini mustahkamlash, estetik didini rivojlantirish va musiqiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim pedagogik vosita ekanligini ko'rsatadi. Xususan, Xitoy musiqa ta'limida an'anaviy musiqa va milliy cholg'ularni o'quv dasturlariga integratsiya qilish o'quvchilarning madaniy o'zligini anglash, ijodiy fikrlash va estetik rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan². O'zbekistonda ham bu borada ijobiy siljishlar kuzatilmoqda, biroq hali tizimli yechimlar yetarli emas.

Raqamli texnologiyalarning didaktik imkoniyatlari tahlili. Tadqiqot doirasida musiqa ta'limida raqamli texnologiyalarni qo'llashning asosiy yo'nalishlari aniqlandi:

- **Musiqa dasturlari (DAW)** – Sibelius, Finale, Cubase, Ableton Live, FL Studio kabi dasturlar musiqa yozish, aranjirovka, ovoz yozish va montaj qilish imkonini beradi;

- **Elektron ta'lim resurslari** – video darsliklar, interaktiv mashqlar, onlayn testlar, musiqa kutubxonalari;

- **Virtual cholg'u asboblari va simulyatorlar** – musiqiy eshitishni rivojlantirish, ritm tuyg'usini shakllantirish uchun interaktiv vositalar;

- **Masofaviy ta'lim platformalari** – Zoom, Microsoft Teams, Google Classroom, Moodle musiqa nazariyasi va metodikasini masofaviy o'qitish uchun qo'llanadi.

Integratsiyalashgan tizim modeli. Tahlil natijalariga asosan, bo'lajak musiqa o'qituvchilarini kasbiy-metodik tayyorlash tizimini takomillashtirishning nazariy modeli ishlab chiqildi (1-rasm):

¹ Xasanova G. Maqom: A Living Organism of Musical Tradition // Journal of National Culture. – 2025. – № 4. – B. 46.

² Shi J. Exploring the Role of Traditional Music in Cultural Education: A Case of Integrated Music Curriculum in China // Mediterranean Archaeology and Archaeometry. – 2025. – Vol. 25, No. 2. – P. 14.

Muhokama.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlash tizimi murakkab va ko'p qirrali pedagogik hodisadir. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ushbu tayyorgarlik quyidagi asosiy jihatlarni qamrab olishi kerak:

Birinchidan, Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-metodik tayyorgarlikning nazariy-metodologik asoslari yanada chuqurlashtirilishi va zamonaviylashtirilishi lozim. Ayniqsa, kompetensiyaviy yondashuv asosida tayyorgarlik mazmunini va metodikasini qayta ko'rib chiqish zarur.

Ikkinchidan, milliy musiqiy merosni zamonaviy ta'lim jarayoniga tizimli ravishda integratsiya qilish nafaqat musiqiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga, balki o'quvchilarning milliy o'zligini anglash, ma'naviy-axloqiy kamoloti, estetik didi va madaniy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan muhim pedagogik omil hisoblanadi. Ushbu yondashuv UNESCOning nomoddiy madaniy merosni ta'lim orqali avlodlarga yetkazish tamoyillari bilan hamohangdir.

Uchinchidan, raqamli texnologiyalar bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligining ajralmas qismiga aylinishi kerak. "O'zbekistonda ta'limni raqamlashtirish va 'Raqamli O'zbekiston – 2030' strategiyasi doirasida musiqa ta'limi tizimida ham raqamli texnologiyalarni joriy etish, elektron ta'lim resurslarini yaratish hamda innovatsion pedagogik yondashuvlarni qo'llash bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda." Bu esa o'qituvchilardan raqamli texnologiyalar bilan ishlash bo'yicha maxsus tayyorgarlikni talab qiladi.

Empirik kuzatishlar bo'yicha muhokama. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'pgina oliy o'quv yurtlarida bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlashda quyidagi muammolar mavjud:


1. Milliy musiqa merosiga yetarlicha e'tibor berilmaydi – fan dasturlarida maqom, xalq qo'shiqlari va an'anaviy cholg'ularga kam vaqt ajratiladi.

2. Raqamli texnologiyalar qo'llanish darajasi past – ko'pgina pedagoglar raqamli vositalardan foydalanish ko'nikmasiga ega emas.

3. Integratsiyalashgan yondashuv yetarli emas – milliy meros va raqamli texnologiyalar alohida, bir-biridan ajratilgan holda o'qitiladi.

Ana shu muammolarni hal qilishda taklif etilayotgan model muhim ahamiyatga ega. Mod-

1-rasm. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini kasbiy-metodik tayyorlash tizimini takomillashtirish modeli.



elda belgilangan tamoyillar – milliy merosga tayanish, raqamlashtirish, integratsiyalashuv, amaliyotga yo'naltirilganlik, uzviylik va izchillik – tayyorgarlik tizimini bosqichma-bosqich takomillashtirish imkonini beradi.

Xorijiy tajriba bilan taqqoslash. Xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish shuni ko'rsatdiki, musiqa pedagogik kadrlar tayyorlash sohasida quyidagi tendensiyalar kuzatilmoqda:

- **Xitoy** – milliy musiqa an'alariga tayanigan holda raqamli texnologiyalar integratsiyasiga katta e'tibor qaratilmoqda;

- **Finlyandiya** – musiqa ta'limida loyiha metodi, o'yin texnologiyalari va media-ta'limga asosiy e'tibor qaratilgan;

- **Germaniya** – musiqa nazariyasi va tarixini chuqur o'rgatish bilan birga, zamonaviy raqamli vositalardan keng foydalaniladi;

• **Qozog'iston** – milliy musiqa merosini saqlash va rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlar joriy etilgan.

O'zbekiston uchun mazkur mamlakatlar tajribasini o'rganish va mos ravishda qo'llash muhim ahamiyatga ega.

Xulosa.

Ushbu maqolada bo'lajak musiqa o'qituvchilarini kasbiy-metodik tayyorlashning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilindi. Quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. Kasbiy-metodik tayyorgarlik murakkab tizimli hodisa bo'lib, u nazariy, amaliy, metodik, raqamli texnologiyalar bilan ishlash, milliy musiqiy merosni o'zlashtirish va integrativ kompetensiyalarni o'z ichiga oladi. Ushbu tarkibiy qismlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanishi kerak.

2. Milliy musiqiy merosning ta'limiy-tarbiyaviy salohiyati katta bo'lishiga qaramay, hozirgi tayyorgarlik tizimida bu salohiyatdan yetarlicha foydalanilmayapti. Maqom, xalq qo'shiqlari, an'anaviy cholg'ular va musiqa tar-

ixiga oid materiallar tayyorgarlikning ajralmas qismiga aylantirilishi lozim.

3. Raqamli texnologiyalar zamonaviy musiqa ta'limining muhim omiliga aylangan. Sibelius, Finale, Ableton Live kabi dasturlarni, elektron ta'lim resurslarini va masofaviy ta'lim platformalarini qo'llash ko'nikmalari bo'lajak musiqa o'qituvchilarida shakllantirilishi zarur.

4. Milliy musiqiy meros va raqamli texnologiyalar integratsiyasi asosida takomillashtirilgan tizim modeli maqolada ishlab chiqilgan bo'lib, uning samaradorligi keyingi empirik tadqiqotlarda tekshirilishi lozim.

5. Xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish va mos ravishda qo'llash – O'zbekiston musiqa ta'limi tizimini rivojlantirishning muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Keyingi tadqiqotlarda taklif etilayotgan modelning amaliy samaradorligini tekshirish, bo'lajak musiqa o'qituvchilarining raqamli kompetentligini rivojlantirish metodikasini yaratish, milliy musiqiy merosni raqamlashtirish va uni o'quv jarayoniga integratsiya qilish bo'yicha an'anaviy-metodik qo'llanma ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi Farmoni. – Toshkent, 2019.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmoni. – Toshkent, 2020.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni. – Toshkent, 2022.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son "2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" gi Farmoni. – Toshkent, 2022.

5. Raximov N.N. Oliy ta'lim tizimida bo'lajak musiqa o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash muammolari // San'atshunoslik. – 2021. – №2. – B. 112–125.

6. Shoganieva Z.I. Developing Methodical Training of Future Music Teachers on the Basis of Teaching the Module of Uzbek Folk Local Methods // Science and Education. – 2023. – №4. – B. 1040–1048.

7. Ibrohimov O. O'zbek musiqiy merosining ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyati. – Toshkent: Musiqa, 2020. – 184 b.

8. Xalilov F.N., Shermatova X. Musiqa o'qituvchilarini tayyorlashda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash. – Toshkent: TDPU, 2021. – 156 b.

9. Qodirova N., Abdullayev B. Raqamli texnologiyalarni musiqa ta'limida qo'llash metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2022. – 172 b.
10. Qobilova E.B. Educating Students in a National Spirit Through Music: Scientific-Theoretical Foundations and Methodology // *Advances in Science and Humanities*. – 2026. – Vol. 2. – No. 3. – P. 49–51.
11. San'atboev O'S. Xorazm maqomlari asosida maktab o'quvchilarida estetik didni rivojlantirishning metodik asoslari // *Science and Education*. – 2025. – Vol. 6. – №11. – B. 356–362.
12. Xasanova G. Maqom: A Living Organism of Musical Tradition // *Journal of National Culture*. – 2025. – №4. – B. 45–53.
13. Karimova D.A. Axiological (Value-Oriented) Paradigm of Music Education in the Era of Globalization // *European Review of Contemporary Arts and Humanities*. – 2026. – Vol. 2. – No. 5. – P. 28–31.
14. Shi J. Exploring the Role of Traditional Music in Cultural Education: A Case of Integrated Music Curriculum in China // *Mediterranean Archaeology and Archaeometry*. – 2025. – Vol. 25. – No. 2. – P. 1–15.
15. UNESCO. About Living Heritage and Education. Intangible Cultural Heritage and Education Programme. – Paris: UNESCO, 2024.